

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI
“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKUL'TETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI**

5340200 – “Menejment” bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Farg'ona shahrida korxonalarni modernizatsiyalash va
rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish (“Farg'onaazot”
OAJ misolida)**

Talaba:

Allaberganov A.

Bitiruv malakaviy ishiga

rahbar-maslahatchi:

i.f.n.J.Qambarov

Bitiruv-malakaviy ishi 2014 yil ____ iyun kuni dastlabki
himoyadan o'tgan. “Menejment” kafedrasining 2014 yil
____ iyun kungi (№ ____ sonli majlis bayoni) yig'ilishi
qaroriga asosan himoyaga ruxsat berilgan

Farg'ona – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va uni boshqarishning o'ziga xos tarafhlari.....	6
1.2. Investitsiyalarni jalb etish va boshqarishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar.....	16
1.3. Investitsiyalarni jalb etish va korxonalarning investitsiya jozibadorligini oshirish.....	25
2-bob. KORXONALARDA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA UNI BOSHQARISH ISHLARI NATIJALARINING TAHLILI	
2.1. Investitsiyalarni boshqarishda qo'llaniladigan me'yoriy xujjatlardan foydalanish maslali.....	33
2.2. Farg'ona viloyatiga jalb etilgan kapital investitsiyalar tahlili.....	41
2.3. "Farg'onaazot" OAJga jalb etilgan investitsiyalarni samarali boshqarish natijalari tahlili.....	51
3-bob. FARG'ONA SHAHRIDAGI KORXONALARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	
3.1. Farg'ona hududida investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	67
3.2. "Farg'onaazot" OAJda investitsiyalarni jalb etishni boshqarishni takomillashtirish.....	78
Xulosa	83
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	87
Ilovalar	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan, dunyodan ajralgan holda rivojlanishi mumkin emas. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, uni xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat"¹.

Investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarini hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Investitsiyalar uchun zarur moliyaviy resurslarni topish iqtisodiy o'sish shartiga aylandi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, o'z modelini amalga oshirayotgan

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Farg'ona viloyat korxonalarini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlik darajasiga olib chiqish jarayonida investitsion muxit va albatta investitsion jarayonni amalga oshirish, shu bilan bir qatorda investitsiyani boshqarishni takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Xamda

¹ I.A.Karimov "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" Toshkent: "O'zbekiston", 2010. 65 bet.

“Farg’onaazot” OAJ korxonasini modernizatsiyalash moboynda investitsion loyxlarni to’g’ri boshqarish va amalga oshirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini o’rgangan xolatda Farg’ona viloyat korxonalarida uni boshqarish, o’ziga xos taraflarini amalda qo’llashdan iborat.
- investitsion korsatkichlardan foydalanilgan holatda uni jalb etish hamda boshqarishni takomillashtirish.
- investitsion jozibadorlikni Farg’ona viloyatida tutgan o’rni va rivojlantirishning nazariy va amaliy ko’nikmalirini o’rganish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti. Bitiruv-malakaviy ishining ob’ekti “Farg’onaazot” OAJ korxonasi xisoblanadi. Bitiruv-malakaviy ishining predmeti investitsiyani jalb etish va investitsion faoliyatni boshqarishni o’rganish.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusini o’rganilganlik darajasi: Xorijlik mualliflar orasida P.Samuelson, G.Markovits,² Ernando De Soto,³ U.S.Harp,⁴ L.Zingales va boshqalarning iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o’sish va investitsiyalar o’rtasidagi aloqani o’rganishga bag’ishlangan asarlarini ko’rsatib o’tish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitlarida investitsion faoliyat muammolari I.Balabanov, B.Alexin, V.Galanov, Yu.Kasimov,⁵ A.Kilyachkov, Ya.Mirkin,⁶ B.Rubtsov kabi Rossiyalik olimlarning ilmiy ishlarida ham o’z aksini topgan.

Investitsiyalar bozori va uning bozor iqtisodiyotidagi rolini tadqiq etishga bag’ishlangan ishlar orasida M.SHarifxodjaev, D.Gazibekov,⁷ A.Vaxobov,

² Markowitz H.M. Portfolio Selection, Journal of Finance 7(1). March, 1952, pp.77-91.

³ Ernando De Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.-M.: ZAO Olimp-Biznes,2001.-272 b.

⁴ Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii. Per. s angl. - M.: INFRA-M, 1999. - XII, 1028 b.

⁵ Kasimov Yu.F. Osnovy teorii optimalnogo portfelya tsennых bumag. – M.: Informatsionno-izdatelskiy dom «Filin’», 1998. – 144 b.

⁶ Mirkin Ya.M. Ryнок tsennых bumag Rossii: vozdeystvie fundamentalных faktorov, prognoz i politika razvitiya.-M.: Alpina Publisher, 2002.-583 s.

⁷ Gazibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.- Toshkent: Moliya, 2003.-332 b.

⁷ Gazibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.- Toshkent: Moliya, 2003.-332 b.

Sh.Abdullaeva, SH.Shoxa'zamiy,⁸ O.Rashidov, V.Kotov, S.Chepel,⁹ I.Butikov,¹⁰ kabi vatanimiz olimlarining ishlarini ham alohida ko'rsatish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining axborot bazasi. Bitiruv-malakaviy ishida asosan Farg'ona viloyat statistika qomitasi hamda davlatimiz statistika boshqarmasining internet saytidan olingan ma'lumotlarga tayangan holda bajarildi. Bundan tashqari BMI ning ob'ekti bo'lmish "Farg'onaazot" OAJ korxonasining statistik va investitsion faoliyatini ifodalovchi ma'nbalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari. Farg'ona viloyat korxonalarida investitsiyani tutgan o'rnini aniqlash va shu xolatdan kelib chiqib uni rivojlantirish, faoliyatini yurgizish va boshqarishda yengilliklar yaratish bitiruv-malakaviy ishining yangiligi xisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Investitsiyani boshqarishni yangi turlari yoritilgan.
- Farg'ona viloyatiga yonaltirilgan investitsiyalar kapitalini to'g'ri taqsimlash va nazorat ostiga olish ko'rsatilgan.
- Farg'ona viloyatini 2016-yilga kelib ESICH ga aylantirish chora-tadbirlari o'rganilib chiqilgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati OAJ shaklidagi "Farg'onaazot" korxonasi investitsiyon boshqaruv tizimini samarali boshqarish asosida uning iqtisodiy barqarorligini oshirishni boshqarish masalalarini nazariy jihatdan o'rganish va o'rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni hal etishga doir amaliy tavsiyalarni berish hamda tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

⁸ SHoxa'zamiy SH.SH. Osnovy privatizatsii, rynek yee ob'ektov i uslug. – T.: Ibn Sino, 2004. – 928 b.

⁹ Chepel S.V., Fattaxova J.A. Klyuchevye elementy effektivnoy investitsionnoy politiki v razvivayushixsya stranax: vozmojnye orientiry dlya Uzbekistana.-T.: TSEI, 2007.-48 b

¹⁰ Butikov I.L. Rinok tsennix bumag.– Tashkent: Konsauditinform, 2001. – 472 b.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy investitsiyalar kapitalni qulayroq qilib joylashtirish va u egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida undan foyda ko'rish maqsadida eksport qiluvchi mamlakatlarning kapital qabul qiluvchi mamlakatlar real va moliyaviy aktivlariga qo'yilishini bildirgan holda, bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tayotgan kapital oqimini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalarning keskin farqi ularni mamlakatlararo ko'chishi, faqat o'z maqsadini ko'zlashi, amal qilish sha-roitlarining o'zgarishi, ancha qulay shartlar bilan qo'yilishi, ishonch qozonishi hisoblanadi.

Globallashish kuchayishi tufayli butun dunyo bo'ylab qisqa muddatlarda kapital, ishlab chiqarish, tovarlar, intellektual salohiyat, mehnat resurslari, axborotlar va boshqalarning ko'chish jarayoni jadallashadi. SHuning uchun ham, investitsiya siyosatini yuritishda bu vaziyatlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi, qisqa vaqt ichida, mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishiga ko'maklashdi, O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, nufuzli tarmoqlarni barpo etilishini ta'minladi. Eng muhimi, O'zbekiston iqtisodiyotining baynalminallashishini va O'zbekistonning xalqaro bozorga o'z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlaydi. Buning oqibatida eksport hajmining o'sishi va respublikamizning to'lov balansi tobora ijobiylashishiga erishiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash masalalari mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning diqqat markazida bo'lganligi tufayli chet el investorlariga yanada qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, soliq imtiyozlaridan kengroq foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy

asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e'tibor qaratish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimdir.

Investitsiyalarni boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, bunda barcha omillarni hisobga olish lozim. Fikrimizcha investitsiyalarni boshqarish bu qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish va resurslar bilan ta'minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazoratidir. hududlarning investitsion faoliyatini strategik boshqaruvining muhim funktsiyasi bu – hudud investitsion strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda investitsiya faoliyat yo'lida uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirish tushiniladi va bunda eng samarali investitsion faoliyatga erishish ko'zda tutiladi.

Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u hudud investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashga asoslanadi va investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga amalga oshiriladi va u hudud firmalarining imidjini oshiradi va uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o'zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o'sishining yangi imkoniyatlari va tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi.

Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxona va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan bosh omil bo'lib hisoblanadi va u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi. Hudud korxonalarining investitsion strategiyasini shakllantirish jarayoni birnecha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Farg'na shaxrida investitsiyani boshqarish va rivojlantirish xozirgi kunda respublikamizda eng asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu masala nafaqat Farg'ona balki boshqa viloyat va shaxarlarda ham o'z ahamiyatiga egadir. Yuqoridagi ikkinchi bobda Farg'ona shaxridagi korxonalarni rivojlantirishda investitsion ahamiyatining taxlili ko'rib chiqilib unga quyidagicha xulosa qilishi mumkin.

Hududlarda investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish korxona va firmalarning nafaqat investitsion faoliyatining unsuri balki, eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi. U belgilangan hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag'batlantirishni ta'minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolda hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning aniq maqsadlarini va strategik vazifalarini belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish jarayonida tashqi va ichki omillarni bir-biriga moslashtiriladi. Tashqi omillar hudud firmalarining strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, investitsiya bozori

konyukturasi o'zgarishlarini bashoratlaydi. Ichki omillar investitsiyalashning alohida yo'nalishlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, bu jarayonda investitsiya resurslarini shakllantiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda shuni aytish mumkinki "Farg'onaazot" OAJ korxonasida xam bir necha kamchilik va muommalarni xal qilishda Farg'ona shaxrining investitsion strategiyasini rivojlanishi katta ahamiyatga ega. 2.2 rejada ko'rsatib o'tilgan natijalarga asoslanib "Farg'onaazot" OAJ korxonasi yaqin yillar davomida o'sish surati jadalashib ketishi kutilmoqda. Chunki yangi maxsulot ishlab chuiqarish, maxaliylashtirish va albatta investitsion loyihalarga aloxida e'tibor bilan qarashi aloxida ahamiyatga loyiqdir. Bunga xulosa qilib shuni aytish mumkinki "Farg'onaazot" OAJ davlat ahamiyatiga molik

korxona xisoblandi shu sababdan uni bankrotlik yoki past rentabillik darajasidan har qanday sharoitdan ob chiqib ketiladi.

Uchinchi bobga aloxida to'xtalib o'tilmasa bo'lamaydi chunki hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishni, kichik biznesni rivojlanishini talab qilib kelmoqda. Farg'ona shaxrini "ESICH" xududiga aylantirish nafaqat Farg'ona shaxri balkim atrofidagi qo'shni viloyatlarni rivojlantirishga sabab bo'la oladi. Bundan tashqari butun dunyo iqtisodchilarining muommasi bo'lib kelayotgan bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish kabi kamchiliklar viloyatimizda bartaraf etilgan bo'ladi.

Investitsion faoliyatni shakllantirish maqsadida kapitalning qo'shimcha o'sish sur'atlarini ta'minlashga, investitsiyalarni daromadlilik darajasini o'sishiga, moliyaviy investitsiyalash va texnologik o'zgarishlarga, kapital qo'yilmalar tuzilishining qayta ishlab chiqilishiga hamda pirovard natijada hududda iqtisodiy o'sishga, aholining turmush darajasining oshishiga erishiladi.

"Farg'onaazot" OAJ korxonasi Farg'ona shaxridagi hattoki viloyatidagi yirik korxona xisoblanadi. Shu sababdan bu korxonani rivoji viloyat va respublika miqyosida ko'rib chiqiladi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqqan holatda shuni aytish mumkinki investitsion loyihalarni rivojlantirish va boshqarish muxim ahamiyatga egadir. "Farg'onaazot" OAJga berilgan takliflardan shuni xulosa qilib o'tish mumkinki, birinchi o'rinda malakali qadr va mutaxassislar bilan ta'minlash bundan tashqari ichki investitsiyani rivojlantirgan holatda yangi texnika va texnologiyalardan jalb qilish zarur.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda va korxonalarda investitsiyalarni samarali boshqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida investitsiyalarni boshqarish mexanizmi nazariy jihatdan ko'rib chiqildi, bu esa investitsiyalarni boshqarishning maqsadi va asosiy vazifalarini amalga oshirishda muhim o'ringa egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: «Adolat», 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni //Xalq so'zi. 1998 yil 24 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni //Xalq so'zi. 1998 yil 20 may.
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qonuni // Xalq so'zi. 1998 yil 21 may.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga hamda “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida Qonun. 2005 yil 16 sentyabr //Xalq so'zi.-2005. №186-sentyabr - 1b.
6. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» gi Qonuni, 1995 yil 21 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ipoteka to'g'risida”gi Qonuni 2006 yil 4 oktyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 9 fevraldagi «Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 19 yanvardagi «Investitsiya loyihalarini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
10. Ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashrish to'g'risida: Qaror 2004 yil 9 fevral //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami. – 2004.- № 6.
11. Qo'shma korxonalar tashkil etishga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: Qaror. 2002 yil 11 oktyabr. 393-son //O'zbekiston Respublikasi moliyaviy Qonunlar.-2003.-№12. 135 b.

12. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. //Soliqlar va bojxona xabarлари. - 2003. -21 (461)-16 may. -9 b.

13. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 1996 yil 25 apreldagi 220-I sonli qonuni.

14. Karimov I.A "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" Toshkent: "O'zbekiston", 2010. 65 bet.

15. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzası. "Farg'ona haqiqati"18.01.2014y.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Islohotlar va Investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish kengashining 2000 yil 13 fevraldagi yig'ilishida qilgan ma'ruzası. «Xalq so'zi» gazetasi, 2000 yil, 2 fevral

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzası. // Xalq so'zi gazetasi 2008 yil 9 fevral.

18. Vaxabov A.V., Xajibakıyev Sh.X., Mo'minov N.G.. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d. , professor Vaxabov A.V.ning umumiy tahriri ostida. – T.: "Moliya", 2010, 328 bet.

19. Butikov I.L. Rinok tsennix bumag.– Tashkent: Konsauditinform, 2001. – 472 b.

20. Chepel S.V., Fattaxova J.A. Klyuchevie elementi effektivnoy investitsionnoy politiki v razvivayuyuxsya stranax: vozmojnie orientiri dlya Uzbekistana.-T.: TSEI, 2007.-48 b

21. Ernando De Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.-M.: ZAO Olimp-

Biznes, 2001.-272 b.

22. G'ozibekov D.R. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Toshkent — 2002 y., i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati, 11—14-betlar.

23. Gazibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.- Toshkent: Moliya, 2003.-332 b.

24. Gazibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.- Toshkent: Moliya, 2003.-332 b.

25. Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti., 2001.- 328b.

26. Jo'raev A. S., Mamatov B. S. Kichik biznes va biznesni rivojlantirishda bozor infratuzilmasi // Bozor, pul va kredit, 2003. 2-son.

27. Kasimov Yu.F. Osnovi teorii optimalnogo portfelya tsennix bumag. – M.: Informatsionno-izdatelskiy dom «Filin'», 1998. – 144 b.

28. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu. Lizing kichik biznes va biznesni kreditlashni samarali vositasi // Bozor, pul va kredit, 2002. 8-son.

29. Markowitz H.M. Portfolio Selection, Journal of Finance 7(1). March, 1952, pp.77-91.

30. Mirkin Ya.M. Rinok tsennix bumag Rossii: vozdeystvie fundamentalnix faktorov, prognoz i politika razvitiya.-M.: Alpina Pablisher, 2002.-583 s.

31. Nosirov E.I. Kichik biznes va biznes investitsiyalarini rivojlantirish istiqbollari va uni takomillashtirish masalalari //Bozor, pul va kredit, 2001. 7-son.

32. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii. Per. s angl. - M.: INFRA-M, 1999. - XII, 1028 b.

33. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Osnovi privatizatsii, rinok yee ob'ektov i uslug. – T.: Ibn Sino, 2004. – 928 b.

34. www.gov.uz – hukumat portal.

35. www.lex.uz – O'zbekistot Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari

milliy bazasi.

36. www.mfer.uz – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti.

37. www.uzinfoinvest.uz - «O'zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.

38. www.farstat.uz – Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining rasmiy sayti.

39. www.azot.uz – “Farg'onaazot” OAJning rasmiy sayti.

40. www.uzkimyosanoat.uz – O'zbekkimyosanoat AJ ning rasmiy sayti.